

TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA FUQAROLIK HUQUQIY SHARTNOMALAR TASNIFI

Jamshid Abdullayev Djamilovich

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), "Adliya a'lochisi"

Email:jamshidb003fb@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha fuqarolik huquqiy shartnomalar tasnifi ilmiy-nazariy tahlil qilingan va tibbiyot sohasidagi shartnomalarning o'ziga xos xususiyatlarining huquqiy asoslariga tavsif berilgan.*

Kalit so'zlar: *Shartnoma, tibbiyot sohasida shartnomalar, tekin va haq evaziga tuziladigan shartnomalar, tibbiyot sohasidagi shartnomalarning tasnifiy mezonlari, konsensual va real shartnomalar, ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar, fuqaroning sog'lig'i tushunchasi, yuridik fakt, sud amaliyotida "Haq evaziga xizmat ko'rsatish" shartnomasi yuzasidan ko'rilgan ishlar.*

Shartnomaviy munosabatlar davrning rivojlanishi natijasida katta o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Ayni paytda zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot, raqamli texnologiyalarning jadal o'zgarishlarni boshidan kechirayotganligi shartnomaviy munosabalar ko'lmini yanada oshirmoqda. E'tiborli jihat shundaki, ayrim amalda mavjud ammo, huquqiy tartibga solinmagan shartnomaviy munosabatlar klassik shartnomaning qoida va qoliplariga to'laligicha tushmaslik holatlari kuzatilmoxda. Jumladan, tadqiqotchi N.Y.Bodyak bu masalani quyidagicha izohlaydi: "So'nggi paytlarda pullik xizmatlar ko'rsatish shartnomasini qo'llash bilan bog'liq munosabatlar doirasi sezilarli darajada kengaydi, bu xizmatlar bozorining jadal rivojlanishi bilan bevosita aloqador. Ammo, qonunchilik bazasi sezilarli o'zgarishlarga duch kelmad" ⁵⁶. Fikrimizni asoslash uchun amaliyotda qo'llanilayotgan ammo nazariy asoslari kam tadqiq etilgan franchayzing shartnomasi haqida quyidagi muhim ma'lumotni keltirish o'rinnlidir: "Tovar belgisi, nou-xau yoki original texnologiyaning huquqiy egasi boshqa shaxslarga haq evaziga ulardan foydalanish huquqini berishi mumkin. Bu franchayzing deb ataladi. Franchayzing shartnomasi qanday shartnoma, u nimalarni o'z ichiga olishi va bu shartnoma davlat ro'yxatidan o'tishi shartmi, kabi masalalarni ko'rib chiqamiz" ⁵⁷.

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorida: "Aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning sifati, samaradorligi va ommabopligrini oshirish,

⁵⁶ Бодяк Н.Е. Договор возмездного оказания услуг: особенности заключения и исполнения // Вестник Кемеровского государственного университета. Серия: Гуманитарные и общественные науки. 2018. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dogovor-vozmezdnoho-okazaniya-uslug-osobennosti-zaklyucheniya-i-ispolneniya>.

⁵⁷ <https://www.bss.uz/article/1109-zbekistonda-franchayzing-shartnomasi-nima#tt11>

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'lамини kengaytirish, sohaga bosqichma-bosqich tibbiy sug'urta tizimini joriy etish, tibbiy xizmatlar bozorida zamonaviy raqobat muhitini yaratish, shu asosda aholining kafolatlangan va sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadi”⁵⁸ belgilab qo'yilgan. Demak, yuqoridagi 12.11.2020-yildagi PQ-4890-son talabidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bosqichma-bosqich tibbiy sug'urta tizimini joriy etish, tibbiy xizmatlar bozorida zamonaviy raqobat muhitini yaratish tibbiyat sohasida haq evaziga xizmat ko'rsatish kelajakda bu sohada katta o'zgarishlar qilinishini isbotlaydi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalar masalasiga to'xtalishdan avval qisqacha shartnoma tushunchasiga mavjud norma ijodkorligidagi tar'rifni keltirishni lozim deb hisoblaymiz. Shartnoma tushunchasiga yuridik adabiyotlarda, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida quyidagicha ta'rif beriladi. “Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi”⁵⁹. Fuqarolik kodeksida shartnoma bilan aloqador bir qancha elementlar jumladan, shartnoma tuzishning erkinligi, tekinga tuziladigan va haq evaziga shartnomalar, uning amal qilish muddati, ommaviy shartnoma, shartnomaning namunaviy shartlari, shartnomani sharhlash, shuningdek, shartnoma tuzish va uning shakli hamda shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi masalalari batafsil norma ijodkorligi namunasi tarzida bayon etilgan. Demak shartnoma bo'yicha taraf o'z burchlarini bajarganligi uchun haq evaziga hamda unga belgilangan tartibda to'lov to'lanishi bilan haq evaziga tuzilishi mumkin.

M.Zokirova, A.Adilbekovalarning fikricha: “Shartnoma o'ziga xos huquqiy munosabat va yuridik fakt sifatida majburiyatlarning vujudga kelishi uchun asoslardan biri hisoblanadi. Zero, majburiyatlarning eng an'anaviy va “original” ifodasi amaliyotda shartnoma ko'rinishida namoyon bo'ladi”⁶⁰. Bu o'rinda M.Zokirova, A.Adilbekovalarning fikriga shartnomaga bergen ta'rifiga qo'shilamiz. Chunki, shartnomada majburiyatlarning minimal talablari taraflar tomonidan kelishib olinadi.

Huquqiy adabiyotlarda shartnoma tuzishda dastlabki shartnoma tushunchasi ham ishlatiladi. Bu jihat tibbiy shartnomalar uchun ham xos xususiyat hisoblanadi. Jumladan bu haqida E.A.Suxanov tomonidan quyidagi fikrlar bildiriladi: “Pactum de contrahendo – rim huquqida mavjud konstruksiya XIX asrda nemis huquqida ham ma'lum bo'lgan”⁶¹. Boshqa bir manbada: “Shartnoma oldi muzokarasi, oldindan kelishib olish sifatida qaralgan”⁶². Y.f.b.f.f.d.,dots. Q.M.Mexmonov masalada o'z tadqiqotlarida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: “Taraflar bir-birini muayyan harakatni sodir etishiga ixtiyoriy majburlashni anglatgan. Rasmiy bo'limgan, da'vo

⁵⁸ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.2021-y., 06/21/6221/0428-son; 29.07.2021-y., 07/21/5199/0721-son; 27.01.2022-y., 07/22/103/0070-son, 26.04.2022-y., 07/22/216/0343-son; 07.07.2023-y., 06/23/108/0460-son

⁵⁹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 2-songa ilova; 03/22/801/0998-son; 25.10.2023 y., 03/23/871/0797-son

⁶⁰ M. Zokirova, A. Adilbekova Fuqarolik huquqida shartnoma tushunchasi, shartnomaviy sharh va uning ahamiyati // Вестник магистратуры. 2022. №2-1 (125). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fuqarolik-huquqida-shartnoma-tushunchasi-shartnomaviy-sharh-va-uning-ahamiyati>

⁶¹ Гражданское право: учебник: в 4 т. /отв.ред. Е. А. Суханов. -2-е изд., перераб. и доп. - Москва: Статут, 2020. Т.

⁶² Общие положения об обязательствах и договорах. Договорные обязательства по передаче вещей в собственность или в пользование. - 480 с.

bilan ta'minlanmagan huquqiy konstruksiya. Stipulatio – real shartnoma shaklini olganida da'vo bilan ta'minlangan. Ya'ni, ashyoni topshirish, pulni to'lash va h.k.”⁶³

Tibbiy xizmat ko'rsatish doirasida tuziladigan ayrim shartnomalarda ham ba'zan dastlabki shartnomadan foydalaniladi. Bu asosan ko'proq estetik plastik jarrohlik amaliyoti, EKU (sun'iy urug'lanish) hamda YoRT (yordamchi reproduktiv texnologiyalar) sohasida amaliyotda uchraydi. Faqat e'tiborli tomoni shundaki, mazkur sohada imzolangan shartnoma aniqroq qilib aystsak, tibbiyot tashkiloti va unga murojaat qilgan jismoniy shaxs o'rtasidagi namunaviy kelishuv amaliyotda qo'llanilmoqda. Demak, mazkur kelishuv shartnomaviy ahamiyat kasb etishini hisobga olib, shuningdek, unda taraflarning huquq va majburiyatlar masalasi mavjudligini inobatga olib, shartnomaviy xususiyatlarini tadqiq etish mavjud masalaning eng maqbul yechimi bo'lib hisoblanadi. Shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlarining bajarmasligi, yoki lozim darajada og'ir oqibatlar yoki o'lim bilan yakunlanishi masalasini keyinroq misol yordamida tahlil qilamiz.

Shartnoma tushunchasiga Rossiya Federatsiyasi fuqarolik qonunchiligidan quyidagicha ta'rif beriladi: “Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarish uchun to'lov yoki boshqa to'lovlarni olishlari kerak bo'lgan shartnoma kompensatsiya hisoblanadi”⁶⁴.

Shartnomaning haq evaziga hamda tekin tuzilishi masalasida S.V.Osipova tomonidan quyidacha mulohaza bayon etiladi: “Shartnomalarning har ikkala turida ham tabiatiga qaramay, “shartnoma” tushunchasining muhim birligidan kelib chiqadigan ikkala o'xshashlik ham mavjud (majburiylik va to'g'ri bajarish, sud tomonidan talqin qilishning umumiy tartibi”⁶⁵. Tadqiqotchi S.V.Osipovaning shartnoma xususidagi har ikkala talqiniga ham qo'shilamiz.

Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasida haq to'lash masalasi muhim o'rinn tutadi. O.V.Gorbunovaning mazkur masalada quyidagi fikrlarini bildiradi: “Tibbiy xizmatlar ko'rsatish shartnomasining ish haqi kabi xususiyati alohida e'tiborga loyiqidir”⁶⁶. Negaki, tibbiy xizmatning sifati xech kimga sir emaski, asosan uning narxi bilan ham bevosa bog'liq hisoblanadi. Chunki, tibbiyot xizmatiga murojaat qilgan har bir shaxs o'ziga sifatlari tibbiyot sohasidagi xizmat ko'rsatilishini o'zining mavjud moddiy imkoniyatidan kelib chiqib tanlaydi. Ammo unga ko'rsatilayotgan tibbiyot xizmati shaxs salomatligining minimal holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi lozim.

Belorus Respublikasi norma ijodkorligida shartnoma tushunchasiga berilgan ta'rif deyarli boshqa MDH mamlakatlari bilan bir xil hisoblanadi: “1. Majburiyatlarini bajargani uchun taraf to'lov yoki boshqa haq olishi shart bo'lgan shartnoma kompensatsiya hisoblanadi.

⁶³ К.М.Мехмонов. Дастлабки шартнома юридик кучга эгами? // ORIENSS. 2022. №10-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dastlabki-shartnoma-yuridik-kuchga-egami-1>

⁶⁴ “Гражданский кодекс Российской Федерации (часть первая)” от 30.11.1994 N 51-ФЗ (ред. от 24.07.2023) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.10.2023); https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_5142/45cede1d41aa5172aebe76f8a3409d2148bdadb/

⁶⁵ Осипова С.В. Гражданско-правовые договоры, связанные с трудом, и трудовой договор // Юридический вестник Самарского университета Juridical Journal of Samara University. - 2018. - Т. 4. - №3. - С. 99-106. doi: 10.18287/2542-047X-2018-4-3-99-106

⁶⁶ Горбунова О.В. Общая характеристика договора оказания медицинских услуг // Вестник ВУИТ. 2017. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obschaya-harakteristika-dogovora-okazaniya-meditsinskih-uslug>

2. Tekin shartnoma - bu shartnoma bo'lib, unga ko'ra bir tomon boshqa tomonga undan to'lov yoki boshqa haq olmasdan biror narsa berish majburiyatini oladi.

3. Agar qonun hujjatlaridan, shartnomaning mazmuni yoki mohiyatidan boshqacha qoida kelib chiqmasa, shartnoma kompensatsiya qilingan deb hisoblanadi”⁶⁷.

Bu o'rinda shartnoma taraflari o'zlarining burchlarini bajarganligi munosabati bilan haq evaziga xizmat ko'rsatish xususiyatlari deyarli bir xil ahamiyatga ega. Odatda shartnomada haq evaziga xizmat ko'rsatilishi bilan taraflar o'rtasida munosabat vujudga keladi.

Tadqiqotchi K.M.Arslonov masalaga boshqacharoq yondashib o'z ilmiy izlanishlarida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Pullik xizmatlar ko'rsatish shartnomasining huquqiy mohiyatini tahlil qilib: bir qarashda shartnoma qo'llash qiyin emasdek ko'rindi. “Biroq, aslida kelishuv uning huquqiy mohiyati, fuqarolik huquqida bunday kelishuvga alohida e'tibor qaratish zarurligi, uning aniq chegaralari va amaliyotda qo'llanilishi haqida ko'plab savollar tug'diradi”⁶⁸. Haqiqatdan ham haq evaziga tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi asosida yoki sodda qilib aytganda tibbiy xizmat preyskurantlari (narx) ayni paytda aksariyat holatlarda aholi iste'mol quvvatiga nisbatan ancha yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, inson ichki a'zolari yurak, buyrak va boshqa tana a'zolari bilan aloqador tibbiy amaliyotlar narxlarining yuqorilgi xech kimga sir emas. O'zbekistonda mazkur amaliyotlar narxlari ochiq manba sifatida berilmaydi. Ammo boshqa mamlakatlarda bunday narxlar ochiq berilgan. Masalan, ochiq manbalarida 2020-yilda Rossiya Federatsiyasida “Koronar arteriyalar uchun qoplamasiz metall stent – 12.031,12 rublni; Dori-darmonli koronar arteriya stentlari (so'rilmaydigan polimer bilan qoplangan) – 25.234,55 rublni tashkil etadi”⁶⁹ deb ma'lumot beriladi. Rivojlangan davlatlarda bunday amaliyotlarning narxi ancha balandligi qayd etish lozim.

Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi o'z navbatida tarmoq sifatida taraflar tomonidan mehnat shartnomasining ham ayrim elementlarini qamrab oladi. Bu haqida “Amaldagi qonunchilik mehnatga oid shartnoma munosabatlarini tashkil etishning mehnat va (yoki) fuqarolik-huquqiy shakllarini biladi. Ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish sohasidagi munosabatlarni shartnomaviy tartibga solish doirasi u yoki bu darajada huquqning ikki sohasi uchun umumiyyidir”⁷⁰. R.R.Safinning fuqarolik-huquqiy munosabatlarida ma'lum, belgilangan ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish sohasida ham mehnat munosabatlari mavjudligini ta'kidlashimiz kerak.

“Shartnoma atamasi uch ma'noda: yuridik fakt; biron-bir yuridik faktga asoslangan, moddiy yoki moddiy manfaatlar to'g'risidagi huquqiy munosabat; shaxslar

⁶⁷ <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=HK9800218> – Национальный правовой Интернет-портал Республики Беларусь

⁶⁸ Arslanov K. M. Dogovor vozmezdного okazaniia uslug v sisteme grazhdansko-pravovykh dogovorov [Contract for paid provision of services in the system of civil law contracts]. Vestnik ekonomiki, prava i sotsiologii = The Review of economy, the law and sociology, no. 1 (2007): 70–75

⁶⁹ https://www.google.com/search?scq_esc=1814fa2a4600643d&q=%D0%A1%D1%82%D0%B5%D0%BD%D1%82+%D1%86%D0%B5%D0%BD%D0%B0+%D0%A0%D0%BE%D1%81%D1%81%D0%B8%D1%8F&sa=X&ved=2ahUKEwjD2fqA-KyEAxU-sVYBHTF8CUkQ1QJ6BAhEEAE&biw=1242&bih=597&dpr=1.1

⁷⁰ Сафин Р. Р. Межотраслевые связи гражданского права при осуществлении договорного регулирования отношений по выполнению работ и оказанию услуг // Вестник экономики, права и социологии. 2016. No 1. С. 180–185. URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=25778648>.

(fuqarolar va tashkilotlar) nima to'g'risida o'zaro kelishsalar, shuni aks ettiruvchi, ifodalovchi hujjat ma'nosida ishlatiladi. Bu yerda u o'zining birinchi ma'nosi - yuridik fakt sifatida ko'rildi va o'rganiladi”⁷¹. Bunda I.B.Zokirovning taraflar o'rtasida o'zaro kelishuv nuqtai nazaridan kelib chiqish fikrimizcha maqsadga muvofiqdir.

Odatda shartnomalar haq evaziga tuziladigan yoki tekinga tuziladigan shartnomalarga bo'linishi bilan farqlanadi. Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi ko'rsatilgan xizmat hamma vaqt ham ashyoviy ko'rinishda bo'lmasligi mumkin. Tibbiyot sohasidagi shartnomalarning tasnifiy mezonlarini tahlil qilish jarayonida aynan tibbiyot sohasidagi shartnomalarda ko'rsatilgan tibbiy xizmat ashyoviy ko'rinishda emasligini alohida qayd etish lozim. Mazkur xususiyatdan kelib chiqib yurtimiz norma ijodkorligida mazkur masalaning u yoki u xususiyatlari huquqiy tartibga solinganligini qayd etish lozim: “Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi bo'yicha ijrochi buyurtmachining topshirig'i bilan ashyoviy shaklda bo'lмаган xizmatni bajarish (muayyan harakatlarni qilish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish), buyurtmachi esa bu xizmat uchun haq to'lash majburiyatini oladi”⁷². Demak, haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasining mazkur xususiyatlarini tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasiga nisbatan tadbiq qilish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Fuqarolik huquqiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi Umida Mahmudxodjaeva fikri bilan izohlaganda haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi quyidagi xususiyatni kasb etadi: “XXI-asrda haq evaziga xizmat ko'rsatish sohasi butun dunyoda shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan va ayni paytda, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda hal qiluvchi sohalardan biri sifatida huquqiy maydonga chiqmoqda. Bu esa sivilistika fani oldiga ham ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan huquqiy vositalarni ishlab chiqish bo'yicha yangidan-yangi vazifalarni keltirib chiqarishi tabiiy hisoblanadi. Zero, haq evaziga xizmat ko'rsatishning ko'p bosqichli mexanizimni tashkil etish orqali ijtimoiy hayot va aholi turmush sharoiti uchun munosib shart-sharoitlari yaratiladi, shaxsnинг ehtiyojlari qondiriladi”⁷³.

U.Mahmudxodjaevaning haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasining ko'p qirrali jarayon sifatida ayni paytda muhim ekanligi, tartibga solish zaruriyati fikrlariga qo'shilamiz. Chunki XXI-asrda fuqarolik-shartnomaviy munosabatlar shakl, mazmun va xususiyat jihatdan yetarlicha boyimoqda.

Zamonaviy ilm-fanning rivoji nafaqat tadbirkorlik munosabatlaridagi shartnomalarning ko'lami, faoliyat ko'rsatish xususiyatlarining oshishiga balki jismoniy shaxslar o'rtasida tibbiyot muassasalari o'rtasida imzolanayotgan va ayni paytda taraflar tomonidan og'zaki bir qancha o'zaro kelishuvlarni vujudga keltirmoqda. Yuqorida qayd qilinganidek, shartnoma haq to'lanilishi xususiyatiga ko'ra belgilangan ma'lum bir haq evaziga tuzilgan hamda tekinga tuziladigan shartnomalarga bo'linadi. Shu o'rinda davlat tomonidan belgilangan imtiyozlar taqdim

⁷¹ Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi 1-qism. Toshkent-2006. B-336.

⁷² <https://lex.uz/docs/-3079020; 2016-yil 26-sentabr, 19-1603/6480-son>

⁷³ <https://yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/article/view/216>; Махмудходжаева У.М. Ички ишлар органлари томонидан ҳақ эвазига хизмат кўрсатиш соҳасида хукукни кўллаш амалиётини такомиллаштириш масалалари // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. No 2 (2021), Б. 161-167.

qilingan jismoniy shaxslarga alohida ro'yxat asosida bepul tibbiy xizmat ko'rsatilishini qayd etishimiz lozim. Ammo, aholining katta qismi tibbiyat sohasida o'z salomatligini ta'minlash maqsadida xususiy tibbiyat muassasalariga tashrif buyurayotganligi hamda o'zaro kelishuv asosida yoki namunaviy rasmiy hujjatlarga imzo qo'yib, bir qancha tibbiy xizmatlar jumladan:

- rekonstruktiv plastik jarrohlik amaliyoti;
- estetik plastik jarrohlik amaliyoti;
- jigar transplantatsiyasi;
- yurak va o'pka transplantatsiyasi;
- buyrak ko'chirib o'tkazish amaliyoti;
- EKU (sun'iy urug'lanish), YoRT (yordamchi reproduktiv texnologiyalar);
- surrogat onalik;
- yurak stendlash va boshqa tibbiy xizmatlar va boshqa xizmatlarni amalga oshirmoqdalar.

E'tiborli tomoni shundaki, bu kabi tibbiy amaliyotlarda taraflar narxni erkin va hatto og'zaki kelishuvlari asosida belgilash holati ko'p uchraydi. Bunda tibbiy amaliyot nizosiz va asoratsiz tugashi ham mumkin. Ammo mavjud tibbiy amaliyot ko'zda tutilmaganidek tugashi taraflar o'rtasida nizoli holatni vujudga keltiradi. Masalan, "Mittivine yumoristik loyihasi asoschisi, taniqli bloger Farhod Mannopov 27 yoshida vafot etdi. u jarrohlik amaliyotidan keyin, 5 martga o'tar kechasi vafot etgan. Bir necha kun oldin u basseynda suzish jarayonida burnini sindirib olgandi. Shundan so'ng operatsiya qilingan, ammo komaga tushib qolib, o'ziga kelmagan. Ma'lum bo'lishicha, Farhod Mannopov Chilonzor tumanidagi Star Med xususiy klinikasida operatsiya qilingan. Holat bo'yicha tekshiruv o'tkazgan Chilonzor tumani prokururaturasi Jinoyat kodeksining 116-moddasi 4-qismi «a» bandi bilan (Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik odamlarning halok bo'lishiga olib kelishi) jinoyat ishi qo'zg'atdi"⁷⁴. Demak, mazkur ma'lumotlar kelib chiqib aytish mumkinki, ayrim tibbiy amaliyotlarini shartnoma asosida huquqiy tartibga solish zaruriyati vujudga kelmoqda. Bundan tashqari ayni paytda bu kabi hodisalarni kundalik hayotda tez-tez takrorlanishi tibbiy sug'ortalash muhim ahamiyat kasb etadi.

"Shartnoma unda ishtirok etayotgan taraflar o'rtasida huquq va majburiyatlarning o'zaro taqsimlanishiga qarab bir tomonlama, ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalarga bo'linadi"⁷⁵. Fikrimizcha, tibbiy xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq shartnomalar taraflar ishtirokiga ko'ra asosan, ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar sirasiga kiradi. Sababi tibbiy xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq shartnomalar jumladan: rekonstruktiv plastik jarrohlik amaliyoti, estetik plastik jarrohlik amaliyoti, jigar transplantatsiyasi, yurak va o'pka transplantatsiyasi, buyrak ko'chirib o'tkazish amaliyoti, EKU (sun'iy urug'lanish), YoRT (yordamchi reproduktiv texnologiyalar), surrogat onalik xizmatlari, yurak stendlash va boshqa

⁷⁴ <https://kun.uz/uz/09996325>

⁷⁵ Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi 1-qism. Toshkent-2006. B-338.

tibbiy xizmatlar murakkab amaliyat bilan bilan bog'liqligi xususiyatidan kelib chiqib, ikki tomonlama va ko'p tomonlama bo'lishi mumkin. Amaliyotda yuqoridagi tibbiy usul yoki vositalar murakkabligiga qarab taraflar tomonidan tuziladigan kelishuvlar bir-biridan tubdan farqlanadi. Sababi mazkur shartnomalarning predmeti, o'ziga xos xususiyatlari, oqibatlari boshqa xususiyatlari bilan farqlanadi.

Klassik tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq shartnomalarda asosan ikki taraf: tibbiy xizmat ko'rsatuvchi va bemor (tibbiy xizmat ko'rsatiluvchi jismoniy shaxs) ishtirok etadi. Biroq ilm-fanning rivojlanishi natijasida mazkur shartnomalarga axborot texnologiyalarning (IT) ta'siri kuchayishi omilidan tashqari, tibbiyot sohasidagi shartnomalarni tibbiy su'g'urtalashga ham zaruriyat vujudga keldi. Fikrimizni norma ijodkorligi bilan asoslash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroridan foydalanamiz: "Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasiga qo'shimcha 8 ta shtat birligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-apreldagi "Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarining tuzilmasini maqbullashtirish va shtat birliklari sonini qisqartirish to'g'risida"gi PQ-5053-son qaroriga muvofiq maqbullashtirilgan shtat birliklari hisobidan ajratilsin"⁷⁶. Demak, davlat tibbiy sug'urta masalasiga alohida e'tibor qaratayotgan ekan shuni ta'kidlashimiz lozimki, nafaqat tibbiyot sohasidagi davlat ko'rsatadigan tibbiy xizmatlar balki tibbiyot sohasida xususiy tashkilotlar tomonidan tibbiy xizmatlar ko'rsatsh bilan bog'liq kelishuvlar qamrovi va ko'lami, tibbiy xizmat turlari kengaymoqda. Tabiiyki, bunda tibbiy sug'urtaga ehtiyoj seziladi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasida tibbiy sug'urta, tibbiyot shartnomasining sug'urtalash masalasi deyarli amaliyotga to'liq joriy qilingan. Tibbiyot shartnomasi ham namunaviy andozadan taraflarning huquq va majburiyatlarani aniq belgilangan umumiyligida xususiyatdan xususiy xususiyat kasb etadigan maxsus shartnomalarni vositasida tartibga solinmoqda. Masalan, AQShda "Contract Between United States Department of Health and Human Services Centers for Medicare & Medicaid Services In Partnership with California Department of Health Care Services"⁷⁷ va Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan qirolligida "Standard General Medical Services Contract"⁷⁸ kabi normativ hujjatlarning mavjudligi fikrimizni isbotlaydi.

Tibbiy xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarda namunaviy (shablon) tibbiyot muassasi va bemor (mijoz) o'rtasida avvaldan aniq rejalashtirilgan kelishuvlarda huquqiy bo'shliqlar borligi bir qarashda ko'rinnmaydi. Ammo masalada mavjud amaliyotda statistik raqamlar bu sohada huquqiy bo'shliqlarni aniq va ravshan ko'rsatib beradi.

⁷⁶ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.09.2023-y., 07/23/296/0687-son; 13.09.2023-y., 06/23/159/0700-son; 24.11.2023-y., 07/23/371/0880-son

⁷⁷ <https://www.cms.gov/medicare-medicaid-coordination/medicare-and-medicaid-coordination/medicare-medicaid-coordination-office/financialalignmentinitiative/downloads/acacontract.pdf>

⁷⁸ <https://www.england.nhs.uk/wp-content/uploads/2020/12/20-21-GMS-Contract-October-2020.pdf>

Ma'lumki, "Shartnomalar tuzilish paytiga va mazmuniga qarab konsensual va real shartnomalarga bo'linadi"⁷⁹.

Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarining tasnifiy mezonlari tahlil etib, tibbiyot sohasidagi shartnomalar konsensual xususiyat kasb etishini qayd etish mumkin. Yana bir jihat shundaki, tibbiyot sohasidagi shartnomalar taraflar o'rtasida imzolanayotgan paytda huquq va majburiyatlar belgilanayotgan bir paytda uning oqibati qanday yakunlanishi taraflarga bog'liq bo'limgan holatda o'zgarishi, taraflarning huquq va majburiyatlar bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi oqibatida shartnoma avvalida ko'zlanganidek yakunlanmasligi mumkin. Ahamiyatli tomoni shundaki mazkur shartnomalarda kun tartibida inson hayoti, fuqarolarning sihat-salomatligi masalasi turishini alohida qayd etish lozim hisoblanadi.

Shu o'rinda tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarining tasnifiy mezonlari ilmiy-naziriy tahlili natijasida bir qancha haqli savollar vujudga keladi. Jumladan, tibbiyot sohasida mavjud shartnomalar qamrovi doirasida:

- shartnoma taraflarining huquq va majburiyatları;
- haq to'lash masalasi;
- ko'rsatilgan tibbiy xizmat sifatidan kelib chiqib kompensatsiya masalasi;
- ko'rsatilgan tibbiy xizmatdan keyin shartnoma tarafi hisoblangan tibbiyot tashkilotining aybi yoki ehtiyyotsizligi tufayli bemorning qoniqarli ahvoli yoki vafoti;
- yoki aksincha sifatli ko'rsatilgan tibbiy xizmat uchun tibbiyot tashkilotiga to'lanishi lozim bo'lgan pul to'lovi masalasi va boshqalarni tahlil qilish, kerakli nizoli masalalarga huquqiy yechim berish fuqarolik huquqi fanining vazifasi hisoblanadi.

Shartnoma masalasi sud amaliyotida shartnoma shartlari bajarilishining o'ziga xos xususiyatlari ham o'ziga xos o'rinni egallaydi. Jumladan, Izboskan tumanlararo Iqtisodiy sudining sudyasi R.G.Asqarovning ochiq OAV – "Paxtakor 29" Izboskan tuman hokimigi nashriga bergan intervusida haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasining mavjud sud amaliyotidagi joriy ahvoli haqida statistikasida bergan ma'lumotlarida: "Haq evaziga xizmat ko'rsatish" shartnomasi yuzasidan ko'rildigan ishlar 10 ta, shundan 8 tasi qanoatlantirilgan, 1 tasi rad qilingan, 1 tasi ish yuritish tugatilgan. "Kredit" shartnomasi yuzasidan 16 ta ishlar ko'rildigan, shundan 15 tasi qanoatlantirilgan, 1 tasi rad qilingan. "Kommunal xizmat ko'rsatish" shartnomasi yuzasidan 6 ta ishlar ko'rildigan, 5 tasi qanoatlantirilgan, 1 tasi rad qilingan. "Sug'urta" shartnomasi yuzasidan 1 ta ish ko'rildigan va qanoatlantirilgan"⁸⁰ qayd qilinadi.

Fuqarolarning sog'lig'i tushunchasida turli fikrlar uchraydi. Masalan, sud amaliyoti vakillari hisoblangan Farg'ona viloyat sudining Iqtisodiy ishlar bo'yicha sudyalari A.Karimov va I.Tursunovlarning fikricha: "Yuridik adabiyotlarda fuqaroning sog'lig'i tushunchasiga alohida yuridik kategoriya sifatida emas, shaxsnинг nomulkiy huquqlari tarkibidagi elementlardan biri sifatida qarash hollari uchraydi. Xususan, ayrim mualliflarning fikricha, "sog'liqqa bo'lgan huquq jismoniy shaxs – fuqaroning

⁷⁹ Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi 1-qism. Toshkent-2006. B-339.

⁸⁰ <https://paxtakor29.uz/?p=1874>; Izboskan tumanlararo Iqtisodiy sudining sudyasi R.G.Asqarov

shaxsiy nomulkiy huquqi bo'lib, uning muhofazasini amalga oshirishni talab qilish va uning buzilmasligiga bo'lgan huquq, odatda, fuqarolik-huquqiy vositalar bilan amalga oshiriladi. Shu sababli, sog'liqni saqlash huquqi yoki fuqaroning o'z sog'lig'iga bo'lgan huquqi shaxsiy nomulkiy huquq sifatida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining

99-moddasida o'z ifodasini topgan⁸¹. Aholining sihat-salomatligi fuqaroning shaxsiy nomulkiy huquqi ekanligi xususiyatidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, tibbiy shartnomaning tadqiq etish bugun har qachongidan dolzarb hisoblanadi.

Tibbiyot sohasidagi shartnomalarning tasnifi bevosita shaxsning salomatligi, shaxsiy nomulkiy huquqlari bilan aloqadorligidan kelib chiqib, T.Fadeyevaning quyidagi tasnifiy mezonini keltirishni lozim deb hisobladik: "Shaxsiy nomulkiy huquqlarni mohiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'ladi: 1)Shaxsiy individuallashtirishga qaratilgan shaxsiy nomulkiy huquqlar: nomga bo'lgan huquq (yuridik shaxsning nomlanishga bo'lgan huquqi), sha'n, qadr-qimmat, ishbilarmonlik obro'yiga bo'lgan huquqlar; 2)Shaxsning jismoniy daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan shaxsiy nomulkiy huquqlar (yashash, erkinlik, istiqomat joyi, turar-joyga bo'lgan huquqlar); 3)Shaxsning ichki dunyosi va uning manfaatlari daxlsizligiga qaratigan shaxsiy huquqlar (shaxsiy va oilaviy sirlar, xususiy ishlarga aralashmaslik, sha'n va qadr-qimmat)"⁸². Demak, shaxsiy nomulkiy huquqlar xususan, globallashuv sharoitida sihat-salomatlik masalasi ham kun tartibida ekanligidan kelib chiqib, tibbiy shartnomalarni tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalari boshqa mamlakatlarda ham tadqiq qilinmoqda. Masalan, M.V.Bolotinaning tibbiy xizmatlar masalasida quyidagi xususiyatlarni qayd etadi: "Tibbiy xizmat uni boshqa xizmatlardan sezilarli darajada ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega: a) tibbiy xizmatning ta'sir qilish obyekti - bu fuqaroning alohida qimmatli, muhim shaxsiy nomulkiy ne'matlari - hayoti, sog'lig'i, tana (jismoniy) daxlsizlik; b) tibbiy xizmat - bu xizmat ko'rsatuvchining malakasiga yuqori talablarni qo'yadigan professional xizmat turi; v) tibbiy xizmatlarning sifati ijrochining malakasiga ham, tibbiy tashkilotning texnik jihozlariga ham bog'liq; d) tibbiy xizmatning natijasi, ayrim istisnolardan tashqari, muhim ifodaga ega emas, chunki xizmat uni ko'rsatish jarayonida sotib olinadi va iste'mol qilinadi va mijoz tomonidan boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin emas; e) tibbiy xizmat natijasini baholashda noaniqlik, chunki kasbiy faoliyatning boshqa sohalaridan farqli o'laroq, tibbiyotda noqulay va hatto halokatli oqibatlar har doim ham tananing xususiyatlarini va ma'lum bir kasallikning tabiatini hisobga olgan holda g'ayritabiiy va noqonuniy bo'lmaydi"⁸³. M.V.Bolotinaning tibbiy xizmat ko'rsatish, tibbiy xizmatnig alohida jihatlari masalasidagi fikrlariga qo'shilamiz.

⁸¹ <https://rishton.uz/site/pdf/1436>; Farg'ona viloyat sudining Iqtisodiy ishlar bo'yicha sudyalari A.Karimov va I.Tursunov

⁸² Гражданское право. -М.: Проспект. 1996. Б-302

⁸³ <https://www.dissercat.com/content/grazhdansko-pravovoe-regulirovanie-prav-potrebitelei-pri-okazanii-meditsinskikh-uslug>;

Болотина М.В. Гражданко-правовое регулирование прав потребителей при оказании медицинских услуг: автореферат дис... канд. юр. Наук. М., 2009, с. 14.

Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarning tasnifini tahlil qilish jarayonida tibbiyot tashkiloti tomonidan shartnomaning ikkinchi tarafi bo'lgan bemor (mijoz)ga xizmatning sifatsiz ko'rsatilishi, huquqiy tilda aytganda taraflar o'rtasida kelishuv yoki shartnomada belgilangan majburiyatlarning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi holatlari ham amaliyotda ko'p uchrashini qayd etishimiz kerak. Bunda mazkur majburiyatning bajarilmasligi aynan tibbiyot tashkilotiga bog'liq bo'lgan yoki aksincha unga bog'liq bo'limgan holatda bo'lishi ham mumkin. Bu masalada tadqiqotchi A.S.Mnatsakanyanning fikrlarini keltirishimiz maqsadga muvofiq: "Zamonaviy ichki fuqarolik qonunchiligidagi faqat noto'g'ri xatti-harakatlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan zarar qoplanadi. Shuning uchun kompensatsiya miqdori etkazilgan zarar miqdoriga nisbatan ancha past bo'ladi. Muallif Germaniya fuqarolik qonunchiligidagi ishlab chiqilgan zararni to'liq qoplash tizimini, shu jumladan "birlamchi" va "keyingi" zararni qoplashni qarz olish imkoniyatini ko'rib chiqdi. Fuqaroga jismoniy va axloqiy azob-uqubatlarni to'g'ridan-to'g'ri tibbiy faoliyat bilan yetkazish holatlarining amaliy murakkabligi aniqlandi, bu salbiy oqibatlarga olib kelmaydi (tibbiy yordam ko'rsatish jarayonida sog'liqqa zarar yetkazmaydigan azob-uqubatlar). Bunday zararni faqat tibbiy xizmat ko'rsatuvchi xodimning aybi bilan qoplash taklif etiladi"⁸⁴. Tadqiqotchi A.S.Mnatsakanyanning Germaniya fuqarolik qonunchiligidagi tibbiy xizmat jarayonida yetkazilgan zararni qoplash masalasi, tibbiy yordam ko'rsatish jarayonida sog'liqqa yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar xususidagi fikrlariga qo'shilamiz.

Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalari aholi salomatligini ta'minlash masalasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, "Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi Muzafera Abdieva fikricha: "2021-yil – Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili munosabati bilan qabul qilingan davlat dasturida tuman va shahar tibbiyot birlashmalari negizida 35 ta tumanlararo qo'shma shikastlanishlar va o'tkir qon-tomir kasalliklari markazlari tashkil etilishi belgilangan edi. Shu maqsadda joriy yil 26-iyulda davlatimiz rahbarining "Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. bugungi kunda har biri 50-o'ringa mo'ljallangan ushbu turdag'i markazlar bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda. E'tiborli, zamonaviy jihozlangan bu markazlar yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlarini tumanlarning o'zida bajarish imkonini beradi. Bu esa, bugungi kunda bunday murakkab jarrohlik amaliyotiga muhtoj bo'lgan 500 nafar jigar, 1 ming 500 nafar buyrak transplantatsiyasiga muhtoj bemorlar uchun katta imkoniyat demakdir"⁸⁵. Yuqoridagi statistik raqamlardan ko'rindan, mamlakatimizda tibbiyot sohasida tekin va ma'lum haq evaziga xizmat ko'rsatish amalyoti yil sayin jadal rivojlanmoqda. Bosh qomusimizda malakali tibbiy xizmatlar masalasi konstitutsiyaviy asoslangan: "Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini,

⁸⁴ <https://www.dissercat.com/content/grazhdansko-pravovaya-otvetstvennost-ispolnitelya-meditsinskikh-uslug>. А.С.Мнацаканян. Гражданское-правовая ответственность исполнителя медицинских услуг. автореферат дис... канд. юр. Наук. М., 2008, с. 5. ВАК РФ 12.00.03.

⁸⁵ https://uzu.uz/oz/posts/tibbiyot-sohasida-boshlangan-islohotlar-samara-bermoqda_316825

tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralarini ko'radi"⁸⁶.

Tibbiy sug'urta masalasida ham tadqiqotchilar orasida turli fikrlar mavjud: "Uslubiy tavsiyalarda "Sug'urtalangan shaxsga yetkazilgan zararni (zararni) qoplash sifatsiz bo'lgan taqdirda dastur doirasida tibbiy yordam majburiy tibbiy sug'urta" mumkin bo'lgan buzilishlar ro'yxatini o'z ichiga oladi"⁸⁷. Fikrimizcha zamonaviy tibbiy xizmatlar ko'rsatish tibbiy sug'urta tizimini takomillashtirish ehtiyojini vujudga keltirmoqda. Bir tomondan qaraganda tibbiy sug'urta mavjud masalalarni yechimi bo'lsa, boshqa tomondan murakkab tibbiy xizmatlarni amalga oshirish jarayonida bemorning salomatligini hamda ko'rsatilgan tibbiy xizmatning to'lovi masalasini kafolatlaydi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha fuqarolik huquqiy shartnomalar tasnifi masalasida quyidagi xulosalarga keldik:

Birinchidan, tibbiyot sohasidagi tibbiy xizmatlar: rekonstruktiv plastik jarrohlik amaliyoti, estetik plastik jarrohlik amaliyoti, jigar transplantatsiyasi, yurak va o'pka transplantatsiyasi, buyrak ko'chirib o'tkazish amaliyoti, EKU (sun'iy urug'lanish), YoRT (yordamchi reproduktiv texnologiyalar), surrogat onalik xizmatlari, yurak stendlash va boshqalarni amalga oshirish haq evaziga xizmat shartnomasining elementlarini o'zida qamrab oladi.

Ikkinchidan, mazkur tibbiy xizmatlarni aholiga ko'rsatishda tibbiyot tashkiloti tomonidan beriladigan namunaviy (shablon) kelishuvdan taraflarning huquq va majburiyatları aniq belgilangan shartnomalarga o'tish lozim

Uchinchidan, muhim shaxsiy nomulkiy huquqlar, xususan, tibbiy xizmat sohasidagi shartnomaviy huquqiy munosabatlari, shaxsning sihat-salomatligini ta'minlashga oid munosabatlarni o'rganish natijasida tibbiyot huquqini tarmoq sifatida, tibbiyot huquqi sohasini kvazi institut sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 2-songa ilova. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.11.2022-y., 03/22/801/0998-son; 25.10.2023-y., 03/23/871/0797-son
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.2021-y., 06/21/6221/0428-son; 29.07.2021-y., 07/21/5199/0721-son; 27.01.2022-y., 07/22/103/0070-son, 26.04.2022-y., 07/22/216/0343-son; 07.07.2023-y., 06/23/108/0460-son
3. <https://lex.uz/docs/-3079020>; 2016-yil 26-sentabr, 19-1603/6480-son
4. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

⁸⁶ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

⁸⁷ Вильгоненко Ирина Михайловна, Степанова Людмила Петровна. К вопросу о защите прав потребителей медицинских услуг при внедоговорных отношениях // Вестник ВУИТ. 2014. №1 (80). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-zashchite-prav-potrebiteley-meditsinskikh-uslug-pri-vnedogovornyyh-otnosheniyah>.

5. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.09.2023-у., 07/23/296/0687-son; 13.09.2023-у., 06/23/159/0700-son; 24.11.2023-у., 07/23/371/0880-son
6. “Гражданский кодекс Российской Федерации (часть первая)” от 30.11.1994 N 51-ФЗ (ред. от 24.07.2023) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.10.2023);
7. Arslanov K. M. Dogovor vozmezdного оказания услуг в системе гражданско-правовых договоров [Contract for paid provision of services in the system of civil law contracts]. Vestnik ekonomiki, prava i sotsiologii = The Review of economy, the law and sociology, no. 1 (2007): 70–75
8. Бодяк Н.Е. Договор возмездного оказания услуг: особенности заключения и исполнения // Вестник Кемеровского государственного университета. Серия: Гуманитарные и общественные науки. 2018. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dogovor-vozmezdного-okazaniya-uslug-osobennosti-zaklyucheniya-i-ispolneniya>
9.<https://www.dissercat.com/content/grazhdansko-pravovoe-regulirovaniye-prav-potrebiteli-pri-okazanii-meditsinskikh-uslug>;
- Болотина М.В. Гражданское-правовое регулирование прав потребителей при оказании медицинских услуг: автореферат дис... канд. юр. Наук. М., 2009, с. 14.
10. Вильгоненко Ирина Михайловна, Степанова Людмила Петровна. К вопросу о защите прав потребителей медицинских услуг при внедоговорных отношениях // Вестник ВУИТ. 2014. №1 (80). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-zashchite-prav-potrebitely-meditsinskikh-uslug-pri-vnedogovornyh-otnosheniyah>
11. Гражданское право. -М.: Проспект. 1996. Б-302
12. Горбунова О.В. Общая характеристика договора оказания медицинских услуг // Вестник ВУИТ. 2017. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obschaya-harakteristika-dogovora-okazaniya-meditsinskikh-uslug>
13. Гражданское право: учебник: в 4 т. /отв.ред. Е. А. Суханов. -2-е изд., перераб. и доп. - Москва: Статут, 2020. Т.
14. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi 1-qism. Toshkent-2006. B-336.
15. Оsipova C.B. Гражданские-правовые договоры, связанные с трудом, и трудовой договор // Юридический вестник Самарского университета Juridical Journal of Samara University. - 2018. - Т. 4. - №3. - С. 99-106. doi: 10.18287/2542-047X-2018-4-3-99-106
16. Сафин Р.Р. Межотраслевые связи гражданского права при осуществлении договорного регулирования отношений по выполнению работ и оказанию услуг // Вестник экономики, права и социологии. 2016. № 1. С. 180–185. URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=25778648>.
17. M.Zokirova, A. Adilbekova Fuqarolik huquqida shartnoma tushunchasi, shartnomaviy sharh va uning ahamiyati // Вестник магистратуры. 2022. №2-1

(125). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fuqarolik-huquqida-shartnomatushunchasi-shartnomaviy-sharh-va-uning-ahamiyati>

18. Қ.М.Мехмонов. Дастрлабки шартнома юридик кучга эгами? // ORIENSS. 2022. №10-2.URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/dastlabki-shartnoma-yuridik-kuchga-egami-1>

19. <https://yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/article/view/216>; Махмудходжаева У.М. Ички ишлар органлари томонидан ҳақ эвазига хизмат кўрсатиш соҳасида ҳуқуқни қўллаш амалиётини такомиллаштириш масалалари // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. No 2 (2021), Б. 161-167.

20.<https://www.dissercat.com/content/grazhdansko-pravovaya-otvetstvennost-ispolnitelya-meditsinskikh-uslug>. А.С.Мнацаканян. Гражданко-правовая ответственность исполнителя медицинских услуг. автореферат дис... канд. юр. Наук. М., 2008, с. 5. ВАК РФ 12.00.03.

21. Общие положения об обязательствах и договорах. Договорные обязательства по передаче вещей в собственность или в пользование. - 480 с.

22. <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=HK9800218> – Национальный правовой Интернет-портал Республики Беларусь

23. <https://www.bss.uz/article/1109-zbekistonda-franchayzing-shartnomasini#ttl1>

24.https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_5142/45cede1d41aa5172aebf76f8a3409d2148bdadb/

25. <https://kun.uz/uz/09996325>

26.<https://www.cms.gov/medicare-medicaid-coordination/medicare-and-medicaid-coordination/medicare-medicaid-coordination-office/financialalignmentinitiative/downloads/cacontract.pdf>

27.<https://www.england.nhs.uk/wp-content/uploads/2020/12/20-21-GMS-Contract-October-2020.pdf>

28. <https://paxtakor29.uz/?p=1874>; Izboskan tumanlararo Iqtisodiy sudining sudyasi R.G.Asqarov

29. <https://rishton.uz/site/pdf/1436>; Farg'ona viloyat sudining Iqtisodiy ishlari bo'yicha sudyalari A.Karimov va I.Tursunov

30.https://uza.uz/oz/posts/tibbiyot-sohasida-boshlangan-islohotlar-samara-bermoqda_316825